

“HOKIM VA YOSHLAR” UCHRASHUVI O‘TKAZILDI



“HOKIM VA YOSHLAR” UCHRASHUVI O‘TKAZILDI

Bugun, 1-sektor binosida navbatdagi “Hokim va yoshlar” uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda “Guliston” va “Bog‘ishamol” mahallasi yoshlari hamda mutasaddi tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi.

Uchrashuvda to‘rt nafar yoshlarning kontrakt to‘lovi masalasidagi, shuningdek, sog‘ligini tiklash va imtiyoz asosida davolanish xarajatlariga yordam berish, ishga joylashish va o‘z-o‘zini band qilish uchun subsidiya asosida asbob-uskuna so‘rab qilgan murojaatlari tinglandi va tegishli tartibda ijobiy hal etilishi belgilandi.

Shundan so‘ng, shahar hokimi, 1-sektor rahbariga biriktirilgan 19 nafar muammosi bor yoshlar bilan ham uchrashuv o‘tkazib, ular bilan kelgusidagi rejalar haqida suhbatlashdi, yoshlarning taklif va tashabbuslari hamda murojaatlarini tingladi.

Image not found or type unknown

Yukunda hal etilishi muddat talab qilinadigan murojaatlar yuqasidan mutasaddi tashkilot rahbarlariga topshiriqlar berilib, ijrosi nazoratga olindi.







Image not found or type unknown

